



**QARSHI DAVLAT
TEXNIKA UNIVERSITETI**

INNOVATSION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY

Electronic Scientific and Practical Journal



2025 MAXSUS SON

**INNOVATSION IQTISODIYOT: MUAMMO, TAHLIL VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI 2-XALQARO ILMIIY-AMALIY ANJUMAN
materiallari asosida tayyorlangan**



@QMI_Instituti



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225 - uy



www.kstu.uz
www.ojs.qmii.uz

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY
Electronic Scientific and Practical
Journal

Soliqlarning korxonalar moliyaviy holatiga ta'sirini baholash masalalari

Babaxonov Ja'far Muxiddinovich

Проблемные вопросы оценки влияния налогов на финансовое положение предприятий

Бабахонов Жаъфар Мухиддинович

Issues of assessing the impact of taxes on the financial position of enterprises

Babakhonov Jafar Mukhiddinovich

Received: October 3, 2025 Revised: October 7, 2025 ■ Accepted: October 13, 2025 ■ Published Online: November 1, 2025

- **Annotatsiya.** Ushbu maqolaning asosiy maqsadi soliq majburiyatlarining korxonalar moliyaviy holatining barqarorligi va samaradorligiga ko'rsatayotgan kompleks ta'sirini o'rganish va baholashdan iborat. Tadqiqotda soliqlarning nafaqat korxonalar daromadlarining yakdil qismi sifatidagi salbiy roliga, balki ularning investitsion jozibadorlik, moliyaviy barqarorlik va raqobatbardoshlik kabi aspektlarga ta'siriga alohida e'tibor qaratilgan. Maqolada zamonaviy soliqqa tortish tizimlari doirasida korxonalar qarashlari mumkin bo'lgan asosiy soliq turlari (daromad solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i, mulk solig'i va boshqalar) tahlil qilinib, ularning moliyaviy hisobotlar (balans, foydadan foydalanish va pul oqimlari to'g'risidagi hisobot) ko'rsatkichlariga qanday aks etishi ko'rib chiqiladi. Maqola, shuningdek, soliq siyosatini optimallashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar bilan yakunlanib, u korxonalar rahbarlari, moliyachilar va tadqiqotchilar uchun qimmatli qo'llanma vazifasini bajaradi.
- **Kalit so'zlar:** Soliq yuki, moliyaviy holat, moliyaviy hisobotlar, soliq rejalashtirish, rentabellik, likvidlik, moliyaviy barqarorlik, soliq solish siyosati, korxonalar daromadlari.
- **Аннотация:** Основной целью данной статьи является исследование и оценка комплексного влияния налоговых обязательств на устойчивость и эффективность финансового положения предприятия. В исследовании рассматривается негативная роль налогов не только как отдельной составляющей дохода предприятия, но и их влияние на такие аспекты, как инвестиционная привлекательность, финансовая устойчивость и конкурентоспособность. В статье анализируются основные виды налогов, с которыми могут столкнуться предприятия в рамках современных налоговых систем (налог на прибыль, налог на добавленную стоимость, налог на имущество и др.), а также рассматривается их отражение в показателях финансовой отчетности (балансе, отчете о прибылях и убытках и отчете о движении денежных средств). В заключение статьи даны практические рекомендации по оптимизации налоговой политики, которые послужат ценным руководством для руководителей предприятий, финансистов и исследователей.
- **Ключевые слова:** налоговая нагрузка, финансовое положение, финансовая отчетность, налоговое планирование, рентабельность, ликвидность, финансовая устойчивость, налоговая политика, корпоративный доход.
- **Abstract:** The main purpose of this article is to study and assess the complex impact of tax obligations on the stability and efficiency of the financial position of an enterprise. The study focuses not only on the negative role of taxes

as a single part of the enterprise's income, but also on their impact on aspects such as investment attractiveness, financial stability and competitiveness. The article analyzes the main types of taxes that enterprises may face within the framework of modern taxation systems (income tax, value added tax, property tax, etc.) and considers how they are reflected in the indicators of financial statements (balance sheet, profit and loss account and cash flow statement). The article also concludes with practical recommendations for optimizing tax policy, which will serve as a valuable guide for business managers, financiers and researchers.

- **Key words:** tax burden, financial position, financial reporting, tax planning, profitability, liquidity, financial stability, tax policy, corporate income.

KIRISH

Iqtisodiyotning asosiy tarkibiy qismi bo'lgan korxonalar o'z faoliyati davomida ko'plab moliyaviy majburiyatlar bilan yuzma-yuz keladilar. Ularning ichida soliqlar eng muhim va majburiy to'lovlar sifatida korxonalar moliyaviy holatiga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Soliq yuki nafaqat korxonaning sof foydasini, balki uning likvidligi, rentabelligi, investitsion jozibadorligi va hatto raqobatbardoshligini ham belgilaydi. Shu sababli, soliqlarning ta'sirini chuqur baholash – nafaqat moliyaviy menejerlar, balki potensial investorlar va davlat siyosatchilari uchun ham dolzarb vazifadir. Ushbu maqolada soliqlarning korxonalar moliyaviy holatining asosiy ko'rsatkichlariga qanday ta'sir qilishi va bu ta'sirni baholash usullari haqida so'z yuritimiz.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ilmiy izlanishlar asosan soliq yuki va uning korxonalar faoliyatining turli ko'rsatkichlari, xususan investitsiyalar, rentabellik, korporativ boshqaruv, bozor qiymati va hatto qimmatli qog'ozlar narxlarini o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganishga qaratilgan. Soliq yukining investitsiyalar va uning o'sishiga ta'siri eng keng o'rganilgan yo'nalishlardan biridir. Zamonaviy kapitalizmning yorqin namoyandasi o'zining Keynscha (Keynesian) yondashuvi orqali soliqlarning ta'siri asr boshlarida Jon Meynard Keyns va uning izdoshlari soliqlarning ko'payishi iste'mol va investitsiyalarni kamaytirish orqali iqtisodiy faollikni pasaytirishini ta'kidlaydi. Bunga ko'ra, yuqori soliq yuki korxonaning investitsion loyihalarni amalga oshirish uchun mavjud resurslarini qisqartiradi.

Neoklassik (Neoclassical) yondashuv soliqlar (ayniqsa, korporativ daromad solig'i) kapital narxini oshiradi va shu orqali unumdor investitsiyalarning kamayishiga olib kelishini nazariy asoslaydi.

"Soliqdan qochish" nazariyasi (Tax Avoidance) olimlar, xususan Mihir A. Desai, James R. Hines Jr. tadqiqotlarida yuqori soliq stavkalari korxonalarini soliq yukini kamaytirish yo'llarini izlashga undashini ko'rsatadi. Bunga soliq jannatlari (tax havens) orqali operatsiyalarni amalga oshirish yoki qarz

moliyalashtirishdan foydalanish kiradi. Bu, o'z navbatida, davlat budjeti tushumlarining pasayishiga olib kelishi mumkin (Laffer egri chizig'i prinsipi). Ko'pgina empirik tadqiqotlar (masalan, OECD hisobotlari) yuqori korporativ daromad solig'i stavkalari va investitsiyalar o'rtasida salbiy korrelyatsiya mavjudligini tasdiqlaydi. Soliq imtiyozlari (masalan, tezkor amortizatsiya) esa investitsiyalarni rag'batlantirishi isbotlangan.

Soliqlarning rentabellik va korxonalar qiymatiga ta'sirini baholash tadqiqotlari Modigliani va Miller teoremasining soliqlar mavjud bo'lgan dunyodagi tatbiqiga asoslanadi. Modigliani-Miller teoremasi (Tax correction) - ushbu nazariya korxonaning kapital tuzilmasi va uning bozor qiymati o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganadi. Teoreмага ko'ra, qarz moliyalashtirish foiz to'lovlari soliqqa tortilmaydigan xarajat bo'lgani uchun soliq himoya to'sig'ini (tax shield) yaratadi va korxonalar qiymatini oshiradi. Shu sababli, optimal kapital tuzilmani shakllantirishda soliq omili asosiy hisoblanadi.

Ko'plab tadqiqotchilar (masalan, Rajan va Zingales) o'zlarining Empirik tadqiqotlarida yuqori soliq muhitida korxonalarining qarz moliyalashtirishdan ko'proq foydalanish tendentsiyasini aniqlashgan. Biroq, haddan tashqari qarz yuki moliyaviy stress xavfini oshiradi. Shuningdek, sof foydaga ta'sir qiluvchi boshqa soliqlar (QQS, aksiz) to'g'ridan-to'g'ri korxonalar rentabelligini pasaytiradi.

Soliqlar korxonalar qiymatiga ikkita yo'l bilan ta'sir qiladi: 1) sof pul oqimlarini kamaytirish orqali; 2) qarz moliyalashtirish orqali soliq himoya to'sig'ini yaratish imkoniyati orqali. Optimal strategiya bu ikki omilni muvozanatlashdan iborat. Zamonaviy tadqiqotlar soliq masalasi faqat moliyachilarning emas, balki yuqori darajadagi menejerlar va direktorlar kengashining mas'uliyati ekanligini ta'kidlaydi. Bu esa soliqlarni rejalashtirish va korporativ boshqaruv korxonalar qiymatiga va aktivlarining o'sishiga katta ta'sirga ega ekanligini belgilaydi. Aksiyadorlar nazariyasi (Agency theory) bo'yicha Boshqaruv (agent) va aksiyadorlar (principal) o'rtasidagi manfaatlar ziddiyati soliq strategiyasiga ham ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, samarali korporativ boshqaruvga ega bo'lgan korxonalarda (masalan, mustaqil direktorlar kengashi) samaraliroq soliq rejalashtirish amalga oshiriladi va soliq xavflari boshqariladi. Shaffoflik

va soliq axloqi (Tax transparency) nazariyasi bo'yicha So'nggi yillarda olimlar Hanlon va Slemrod korxonalarining soliq to'lashiga nisbatan jamoatchilik va investorlarning munosabatini o'rganishmoqda. "Yaxshi korporativ fuqaro" sifatida tan olinish istagi ba'zan soliq rejalashtirishning agressiv shakllaridan ko'ra soliq shaffofligini afzal ko'rishiga olib kelishi mumkin, chunki bu korxonalar obro'sini oshiradi va regulyatorlik xavfini kamaytiradi. Soliq strategiyasi korporativ boshqaruv tizimining ajralmas qismidir. Uni faqat qisqa muddatli soliq tejash maqsadida emas, balki uzoq muddatli korxonalar obro'si va barqarorligini hisobga olgan holda ishlab chiqish kerak. Soliq siyosati va raqobatbardoshlik doirasida xalqaro miqyosdagi tadqiqotlar soliq korxonalarining global raqobatbardoshligiga ta'sirini o'rganadi. Soliqlarning korxonalar joylashuv qarorlariga ta'siri bo'yicha tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, korxonalar o'z faoliyatini soliq stavkalari past bo'lgan mamlakatlarga ko'chirishga intilishi mumkin. Bu ayniqsa mobil xalqaro korporatsiyalar uchun xos. Soliqlarning to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalari (FDI)ga ta'siri ham muhim o'rganiladigan yo'nalishlardan hisoblanadi. Olimlar Alfaro va Chen past soliq stavkalari va barqaror soliq siyosati FDI oqimlari uchun muhim omil ekanligini aniqlashgan.

■ TADVIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada tahlil, sintez, abstrakt, monografik kuzatuv, matematik modellashtirish kabi metodlardan foydalanildi.

■ TAHLIL VA NATIJALAR

Korxonalar moliyaviy holati, odatda, uning moliyaviy hisobotlari – balans, daromadlar va xarajatlar hisobi va boshqa moliyaviy ko'rsatkichlar orqali baholanadi. Soliqlar ushbu moliyaviy parametrlarning aksariyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi, xususan:

Daromadlar va xarajatlar hisobiga ta'siri: eng aniq ta'sir sof foyda natijasiga ta'sir etadi. Korxonalar to'laydigan barcha soliqlar (asosiy – foyda solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i (QQS), aksiz, boj, eksport-import bojlari, transport solig'i va boshqalar) oxir-oqibat foydani bir qismini tashkil qiladi. Yuqori soliq yuki sof foydani kamaytirib, korxonaning o'z kapitalini ko'paytirish, dividend to'lash yoki reinvestitsiya qilish imkoniyatini cheklaydi.

Qisqa muddatli majburiyatlar: QQS va boshqa ayrim soliq korxonalar qarz summasi balansning "Qisqa muddatli majburiyatlar" bo'limida aks etadi. Bu korxonaning joriy likvidligi va to'lov qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Aktivlar qiymati: soliq korxonalar aktivlarining sof qiymatiga ham ta'sir etadi. Masalan, ba'zi mamlakatlarda transport vositalari solig'i ularning tannarxini oshiradi, ko'chmas mulklar

uchun qo'yilgan soliq korxonalar ularning balansdagi qiymatiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. O'zbekistonda aktivlarining sotib olishda qo'llanadigan soliq turlari ularning balansda olishda qiymatlariga ta'sir ko'rsatadi.

Soliqlarning moliyaviy faoliyatga bilvosita ta'siri korxonalar faoliyatining chuqur qatlamlariga kuzatilishi mumkin, xususan:

pul mablag'lari oqimiga ta'siri: soliq to'lovlari korxonaning chiqib ketadigan pul oqimining muhim qismidir. Rejalashtirilmagan yoki yuqori soliq to'lovlari naqd pul tanqisligiga olib kelishi va korxonaning kunlik operatsion xarajatlarini qoplash qobiliyatini zaiflashtirishi mumkin.

investitsion qarorlarga ta'siri: Davlat ko'pincha soliq imtiyozlari (investitsiya kreditlari, tezkor amortizatsiya va boshqalar) orqali ma'lum sohalarga investitsiyalarni rag'batlantiradi. Qaror qabul qilishda boshqaruv ushbu imtiyozlarni hisobga oladi. Soliq siyosati korxonaning yangi uskunalarni sotib olish, ishlab chiqarishni kengaytirish kabi strategik qarorlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

narxlar siyosatiga ta'siri: QQS va aksiz soliq korxonalar tovarlar va xizmatlarning yakuniy narxiga bevosita kiritiladi. Korxonalar ushbu soliq korxonalar iste'molchilarga o'tkazishga urinadi, bu esa narxlarning oshishiga va raqobatbardoshligining pasayishiga olib kelishi mumkin.

Soliqlarning ta'sirini baholashda xalqaro miqyosda bir qancha usullardan foydalanish keng takomillashib bormoqda. Xususan, soliq yukini baholash usullari va ko'rsatkichlarini baholash uchun moliyaviy tahlilda quyidagi ko'rsatkichlar qo'llaniladi:

umumiy soliq yukining daromadga nisbati: bu eng keng tarqalgan ko'rsatkichdir. Bu ko'rsatkich har bir so'm daromad uchun qancha soliq to'lanishini ko'rsatadi. Ko'rsatkichning yuqoriligi korxonaning soliq majburiyatlarining og'irligini anglatadi.

Soliq yukining sof foydaga nisbati: bu ko'rsatkich kompaniya foydasining qancha qismi davlat byudjetiga yo'naltirilishini aniqlaydi.

Soliq yukining aktivlar qiymatiga nisbati: bu ko'rsatkich korxonalar aktivlaridan qancha samarali foydalanish unga qanchalik soliq yukini keltirib chiqarayotganini ko'rsatadi. Ushbu ko'rsatkichlarni tahlil qilishda muhim jihat – ularni vaqt o'tishi bilan (trendlar tahlili) va raqobatkorlik ko'rsatkichlari bilan (solishtirma tahlil) solishtirishdir.

Soliqlarning korxonalar moliyaviy ko'rsatkichlariga ta'sirini baholash uchun bir qator ekonometrik modellardan foydalaniladi. Ushbu modellar asosan soliq stavkalari yoki soliq to'lovlar miqdori bilan moliyaviy ko'rsatkichlar (investitsiyalar, rentabellik, aktivlar daromadi va h.k.) o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashga qaratilgan. Quyida eng ko'p qo'llaniladigan ekonometrik modellar va ularning qo'llanilishi tahlili keltirilgan:

Asosiy chiziqli regressiya modellari - bu eng oddiy va keng tarqalgan yondashuv bo'lib, ko'pincha panel ma'lumotlar (panel data) bilan ishlatiladi.

Model Ko'rinishi:

$$Y_{-it} = \beta_0 + \beta_1 Tax_{-it} + \beta_2 X_{-it} + \alpha_i + \lambda_{-t} + \varepsilon_{-it}$$

Y_{-it} : i-korxonaning t-yildagi moliyaviy ko'rsatkichi (masalan, aktivlar daromadi - ROA, investitsiyalar / aktivlar nisbati).

Tax_{-it} : asosiy mustaqil o'zgaruvchi. Bu quyidagilardan biri bo'lishi mumkin:

haqiqiy soliq stavkasi (Effective Tax Rate - ETR): (To'langan daromad solig'i / Soliqqa tortiladigan daromad). Bu korxonaning haqiqatda qancha soliq to'layotganini ko'rsatadi. kapitallashtirilgan soliq yuki: Barcha soliq to'lovlari / Moliyaviy hisobot daromadi yoki aktivlar qiymati.

X_{-it} : boshqa nazorat o'zgaruvchilari (firm size, leverage, o'sish imkoniyatlari, soha va h.k.).

α_i : korxonaga xos vaqt bilan o'zgarmaydigan omillar (masalan, korporativ madaniyat).

λ_{-t} : iqtisodiy tsikl kabi vaqtga xos omillarni nazorat qiluvchi yil dummy o'zgaruvchilari.

ε_{-it} : xato hadi.

Agar β_1 koeffitsiyenti statistik ahamiyatli va manfiy bo'lsa, bu soliq yukining oshishi moliyaviy ko'rsatkichning (masalan, rentabellik) pasayishi bilan bog'liq degan xulosaga keladi.

Tabiiyeksperiment va "Difference-in-Differences" (DiD) modeli soliq siyosatidagi o'zgarishlar (masalan, soliq stavkasining pasayishi yoki ko'tarilishi) ta'sirini baholashda eng ishonchli usullardan biri hisoblanadi. Bu asosan qonunchilikda o'zgarishlarning ta'sirini ta'sirga uchragan (treatment group) va nazorat guruhlar (control group) solishtirish orqali o'rganiladi. Treatment guruhi - yangi soliq qoidasiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiladigan korxonalar (masalan, ma'lum sohadagi korxonalar)dir. Control guruhi - soliq o'zgarishidan ta'sirlanmaydigan korxonalar (boshqa sohalarda)dir.

Model Ko'rinishi: $Y_{it} = \beta_0 + \beta_1 treatment_i + \beta_2 Post_t + \beta_3 (treatment_i * Post_t) + \beta_4 X_{it} + \varepsilon_{it}$

Treatment_i: agar korxonalar treatment guruhida bo'lsa 1, bo'lmasa 0.

Post_t: soliq o'zgarishidan keyingi davr uchun 1, oldingi davr uchun 0.

β_3 - DiD koeffitsiyenti: asosiy qiziqish koeffitsiyenti bo'lib, soliq siyosati o'zgarishining sof ta'sirini o'lchaydi. Misol uchun agar davlat IT-sohasiga soliq imtiyozini joriy qilsa, β_3 IT-korxonalarining rentabellik yoki investitsiya ko'rsatkichlaridagi o'sish soliq imtiyozisiz korxonalariga nisbatan qanchalik yuqori ekanligini ko'rsatadi.

Instrumental o'zgaruvchilar (Instrumental variables - IV) usuli - bu usul cheklovchi o'lchov xatolari (measurement error) va birgalikdagi aniqlik (endogeneity) muammolarini hal qilish uchun qo'llaniladi. Masalan, yuqori foydali korxonalar soliq to'lashdan qochish imkoniyati ko'proq bo'ladi, ya'ni

rentabellik va soliq yuki o'rtasida ikki tomonlama bog'liqlik mavjud. Bu modelning asosiy mantig'i - mustaqil o'zgaruvchi (Tax) bilan xato hadi (ε) o'rtasidagi korrelyatsiyani buzish uchun instrument deb ataladigan yangi o'zgaruvchi kiritiladi.

Instrument quyidagi shartlarni qondirishi kerak:

kuchli bog'liqlik: instrument soliq o'zgaruvchisi bilan kuchli bog'liq bo'lishi kerak.

Eksogenelekt: instrument moliyaviy ko'rsatkich (Y) bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lmasligi kerak (faqat soliq orqali ta'sir ko'rsatishi kerak).

Instrumentga misollar sifatida - soha bo'yicha o'rtacha soliq stavkasi (bitta korxonalar soliq siyosatiga ta'sir ko'rsata olmaydi), soliq siyosatidagi o'zgarishlar (korxonalar faoliyatidan mustaqil siyosiy qarorlar) keltirilishi mumkin. IV usuli ikki bosqichli eng kichik kvadratlar (2SLS) orqali amalga oshiriladi. Birinchi bosqichda Tax instrument va boshqa o'zgaruvchilar yordamida bashorat qilinadi. Ikkinchi bosqichda bashorat qilingan Tax_{hat} qiymatlari asosiy modelga kiritiladi.

Panel Modellari: Fixed effects modellari korxonalararo o'zgaruvchanlik va vaqt bilan o'zgarmaydigan korxonalar xususiyatlarini nazorat qilish uchun panel ma'lumotlar tahlili muhim ahamiyatga ega. Fixed Effects (FE) modeli: α_i ni modeldan chiqarib tashlash uchun har bir korxonalar uchun o'rtacha qiymatlar yoki vaqt bo'yicha farqlar hisoblanadi. Bu usul korxonalar xos, vaqt bilan o'zgarmas omillarni (masalan, joylashuv, tashkil etilgan yili) avtomatik ravishda nazorat qiladi. Bu ko'pincha eng maqbul usul hisoblanadi.

Random effects (RE) modeli: agar α_i va boshqa o'zgaruvchilar o'rtasida korrelyatsiya bo'lmasa, RE samaraliroq hisoblanadi. Amalda, bu shart kam bajariladi. Hausman testi FE va RE modellari qaysi biri maqbulroq ekanligini aniqlash uchun ishlatiladi.

Moliyaviy ko'rsatkichlar ko'pincha avvalgi qiymatlariga bog'liq bo'ladi (masalan, o'tgan yildagi rentabellik bugungi rentabellikni ta'sir qiladi). Bunday holatda statik modellar noto'g'ri natija beradi. Bunday muammolarni oldini olish uchun dinamik modellardan foydalanish ko'proq ishonchli natija olish muhimdir. Arellano-Bond Estimator - bu dinamik modellarda eng ko'p qo'llaniladigan usullardan biridir. Model birinchi farqlar shaklida yoziladi va α_i yo'qotiladi. Keyin, Y ning kechiktirilgan qiymatlari instrument sifatida ishlatiladi. Bu Generalized Method of Moments (GMM) asosidagi usuldir. Bu modellarni qo'llashda bir qancha amaliy qadamlar ca e'tibor beriladigan nuqtalari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

Moliyaviy ma'lumotlarni ekstremal qiymatlardan (outliers) tozalash va gomosedastiklik talablarini qondirish uchun logarifmlash yoki miqyoslash kerak.

Multikollinearlikni tekshirish - mustaqil o'zgaruvchilar o'rtasida yuqori korrelyatsiya bo'lmasligi kerak (VIF - Variance Inflation Factor ko'rsatkichi yordamida tekshiriladi).

Geteroskedastiklik va avtokorrelyatsiya-panel ma'lumotlarda bu muammolar keng tarqalgan. Cluster-robust standart xatolar hisoblash yoki FE modellari yordamida hal qilinadi.

Model spesifikatsiyasi - har xil model spesifikatsiyalarini sinab ko'rish va natijalarning mustahkamligini (robustness checks) tekshirish kerak.

Tadqiqotlar foydalaniladigan ma'lumotlarning sifatiga qarab ushbu modellardan birini yoki bir nechtasini tanlash mumkin. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda "Difference-in-Differences" va Dinamik Panel GMM kabi ilg'or usullar an'anaviy chiziqli regressiyaga nisbatan ustunlik qilmoqda, chunki ular kauzal ta'sirni aniqlashda ko'proq ishonchli hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Soliqlar korxonalar moliyaviy holatining har bir tomoniga - rentabellikdan tortib, likvidlik, barqarorlik va o'sish istiqbollari uchun chuqur ta'sir ko'rsatuvchi muhim omil hisoblanadi. Soliq yukini faqat to'langan summa miqdori sifatida emas, balki korxonalar qiymatini shakllantiruvchi strategik omil sifatida baholash zarur.

Soliq yukini samarali boshqarish - bu nafaqat soliq to'lovlarini minimallashtirish, balki qonun doirasida soliq rejasini optimallashtirish, moliyaviy oqimlarni aniq rejalashtirish va davlat tomonidan taqdim etilayotgan imtiyozlardan samarali foydalanishni anglatadi. Shuningdek, davlat siyosatchilari uchun korxonalar adolatli va oqilona soliq yukini belgilash, iqtisodiy o'sish va investitsiyalarni rag'batlantirish yo'lida muhim qadam bo'ladi. Demak, soliqning ta'sirini chuqur va kompleks baholash nafaqat korxonalar, balki butun mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi uchun ham asosiy shartdir.

Ilmiy tadqiqotlarning asosiy xulosasi shundan iboratki, soliq korxonalar moliyaviy qarorlarining markazida turuvchi muhim omildir. Umumiy xulosa sifatida soliqni faqat budjet tushumi sifatida emas, balki iqtisodiyotni rag'batlantirish vositasi sifatida ko'rish kerakligi zarurligini bildiradi. Optimal soliq siyosati - bu budjet ehtiyojlari va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish o'rtasidagi muvozanatdir. Zamonaviy trend - bu soliq shaffofligini oshirish, "soliqdan qochish" holatlariga qarshi kurash va soliq rejalashtirishning agressiv shakllarini cheklashga qaratilgan xalqaro hamkorlik (masalan, OECD ning BEPS loyihasi - Base Erosion and Profit Shifting). Tadqiqotlar soliq yukini baholashda uni ko'p qirrali, strategik va uzoq muddatli ta'sirga ega bo'lgan omil sifatida tushunish zarurligini ta'kidlaydi.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

1. Babaxonov Ja'far Muxiddinovich Qarshi davlat texnika universiteti "Moliya va bank ishi" kafedrasida dotsenti, PhD / Бабахонов Джафар Мухиддинович, доцент кафедры «Финансы и банковское дело» Каршинского государственного технического университета, кандидат экономических наук / Babakhonov Jafar Mukhiddinovich, acting associate professor, Karshi State Technical University

► jafar_babakhonov@hotmail.com

■ ORCID: 0009-0004-8889-6725

Foydalanilgan adabiyotlar:

- [1]. Armstrong, C. S., et al. (2015). "Corporate governance, incentives, and tax avoidance." *Journal of Accounting and Economics*.
 - [2]. Brealey, R. A., Myers, S. C., & Allen, F. (2020). "Principles of Corporate Finance."
 - [3]. Wooldridge, J. M. (2019). "Introductory Econometrics: A Modern Approach."
 - [4]. OECD (2021). "Tax Policy Reforms 2021: OECD and Selected Partner Economies."
- OECD mamlakatlaridagi soliq islohotlari
- [5]. World Bank (2020). "World Development Report: Trading for Development in the Age of Global Value Chains."
 - [6]. Abduvaliyev, A., & Xolmirzayev, B. (2020). "O'zbekistonda soliq yukining korxonalar faoliyatiga ta'siri."
 - [7]. Babakhonov J.M. (2023) Increasing the Financial Capabilities and Investment Attractiveness of Enterprises. *International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding*. Volume 10, Issue 7, July.
 - [8]. Babakhonov J.M. (2023) The Methodology for Assessing the Financial Capabilities of Enterprises. *International Journal of Social Science Research and Review*. Volume 6, Issue 7, July.
 - [9]. Бабахонов Ж.М. (2023) Солиқларнинг корхонлар мoliyaviy-xўжалик фаолиятига таъсири ва уни самарали бошқариш. "Иқтисодий тараққиёт ва таҳлил" илмий электрон журнали. Май I сон.